

Odiljon Qodirov

BEG'UBOR
TUYG'ULAR

«Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ
2013

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(50'zb) 7 -

Q-53

Y-5. агаф.

Q-53. Qodirov Odiljon. «Beg'ubor tuyg'ular» she'rlar. "Andijon nashriyot-matbaa" MChJ, 2013- yil, 32-bet.

Aziz o'quvchi, shoir Odiljon Qodirovning nomi sizga avvaldan tanish bo'lsa, ajab emas. Chunki, uning sizlarga bag'ishlangan qator she'riy kitoblari nashr etilgan. Shoirning yangi kitobi "Beg'ubor tuyg'ular" ham siz aziz bolajonlarga baxshida etilgan.

Shoirning bu yangi to'plami ham kitob javoningizdan munosib o'rin olishiga ishonamiz.

ISBN 978-9943-4137-7-1

2014/16
A
1332
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

© O.Qodirov, 2013.
© "Andijon nashriyot-
matbaa" MChJ, 2013

10 42293
Ogj

BOLALAR IJODKORI

Aslida bolalarga bag‘ishlab she‘r yozish oson emas. She‘r yozib ularga ma‘qul qilish undan ham qiyin.

Bolalarga mo‘ljallab she‘r yozish uchun ularning psixologiyasini, xarakterini yaxshi bilish kerak. Bundan tashqari ularning tili va qiziqishini, dunyoqarashini ham yaxshi anglash kerak.

Xo‘jaobodlik shoir Odiljon Qodirovda ana shu talab etilgan fazilatlarning hammasi mujassam. Shuning uchun ham Odiljon yozgan she‘rlar ko‘pincha muvaffaqiyatli chiqadi. Boisi Odiljon Qodirov 40 yilga yaqin o‘rtta maktabda bolalarga til va adabiyot fanidan dars berdi. Bu sohada katta tajribaga ega.

Odiljon ijod qilgan she‘rlar ixcham va sodda, fikrlari lo‘nda, yumorga boy. Uning she‘rlari ikki-uch, nari borsa to‘rt-besh banddan iborat.

Quyidagi she`rlar fikrimizni tasdiqlaydi:

- Qani tur Hasanali,
Echdingmi masalani?
Yozganlarim o'chirdim,
Gulshanoydan ko'chirdim.

Yoki "Usta" she`rida:

Buzilsa televizor,
Baxtiyor "tuzatar zo'r".
Payvandlaydi, qaraydi,
Bir haftaga yaraydi.

Bunday quvnoq she`rlarni bolalar sevib
o'qiydi va tezda yodlab oladi.

Shoirning "Jo'mragi uchdi", "Erib ketdi",
"Shaxmatchi", "Kamarim ham yangi",
"Mehmondo'st" kabi she`rlari borki, bu she`rlar
bolalarning beg'ubor qalbidan mustahkam joy
oladi.

Men shu ma'noda Odiljon Qodirovni kich-
kintoylarning katta shoiri degim keladi. Men
noyob iste'dod egasi bo'lgan shoir Odiljon
Qodirovga mustahkam sog'liq, ijodiga baraka va
beg'uborlik tilayman.

Nusrat ABDUSALOM,
shoir.

XUSHMANZARA DIYOR

Qishlog`imga do`sstlarim havas bilan qaragan,
Sohibkori uzumin beshbarmoqday taragan.
Dilkushodning gilosi hil-hil qizarib pishgan,
Xaridori Quvadan do`sstlarim yo`li tushgan.

Shahrixonsovuvini tol barglari silaydi.
Dur-qatras shaldirab go`yoki erkalaydi.
Moviy ko`lda qayig`im bir maromda suzyapti,
Oh, sayr gashtin yigit-qiz chin dilidan sezyapti.

Yettichinor yurtga ko`rk, oltin boshoq doni bor,
Odamlari saxiy deng, tandir to`la noni bor.
Mehmonlarni orziqib biz “Do`sstlik”da kutamiz,
Yozib keng dasturxon bir piyola choy tutamiz.



ANDIJONNING BOG'IDA

Andijonning bog'ida,
Ayni yozning chog'ida.
Lola, Maktuba qizlar,
Yurib go'zallik izlar.

Moviy ko'l, xushbo'y gullar,
Havas-la, boqishar ular.
Qayiq-chi, past ovozda,
Qizlar chiqishsa soz-da.

Dugonalar kulishib,
Gul yonida turishib.
Semurg' qushga boqardi,
Soya-salqin yoqardi.

Muzqaymog'in yeishdi,
Maza qildik - deyishdi.
Yaxshi-a, yozgi ta'til,
Bir kuni yilga tatir.



ZILOL BULOQ

Qishlog‘imga bir qarang,
Bog‘ida gul turfa rang.
Tolzor, yashil o‘tloq bor,
Etagida buloq bor.

Boqsam dur-dur toshlari,
Yashil maysa qoshlari.
Suvi oyna singari,
Chopqilaydi ilgari.

Oqar go‘yo eshilib,
Oqburaga qo‘shilib.
Boshin urib qirg‘oqqa,
Yo‘l olaf dala, boqqa.

Billur buloq tiniqdir,
Qish fasli ham iliqdir.
Suvin ichar to‘rt qishloq,
Og‘ushida Yorqishloq.



KOSONSOY .

Shaboda g'ir-g'ir esar,
Adir bag'rini kezar.
Serviqor tog'havosi,
Yuragimning davosi.

- Ko'rganmisan, Hasanboy,
Sokin oqar Kosonsoy.
Qirg'og'ida so'rilar,
Suvlar o'ynab burilar,

O'rik, olmazor bog'lar,
Hosili mo'l kuz chog'lar.
Yurtning qovun, pishlog'i,
Dasturxonda qish chog'i.

Do'stim bilan aylandik,
Bozori past-balndlilik.
Serobdir uzum, mayiz,
Sizga yoqar yesangiz.

YOMG'IRDAN SO'NG...

Yomg'irdan so'ng To'lqinning
Dil xumori yozilar.

Yashil maysa toshloqning
Qirg'og'iga cho'zilar.

So'rasangiz undan bir,
Mo'l-ko'lchilik suvdandir.
-Yaxshi yomg'ir yoqqani,
Ariq tomon oqqani.

Kelib-ko'rsa xuftonda,
Suv ko'payar «Robdon»da.
To'xtamasmish shashtidan,
Soy xursand mish gashtidan.

Paxta, bug'doy, sholimiz,
Mirob bola - Solimiz.
«Ayrитом»ни etaklab,
Borar suvni yetaklab.

ОЗМОҚИМДА ОЗМОҚИМДА ОЗМОҚИМДА ОЗМОҚИМДА ОЗМОҚИМДА

OQ KABUTAR – OSMONIMDA

Kecha qiziq tush ko‘rdim,
Osmonimda qush ko‘rdim.
Buvi, Sizga atab men
She‘r yozmoqni xush ko‘rdim.

- Hoy, Janubga uchgan qush,
Kel, pastlab yonimga tush.
Ketib qolma yiroqqa,
Qo‘ngin Faqirqishloqqa.

Salomim ayt, ularga,
Yana qaytgin Uralga.
-Bo‘pti, ey askar yigit,
So‘zlarining menga o‘git.



GULSHAN BOG'

Dilimdagi tuyg'ular,
Ko'zdan qochib uyqular.
Yurak doim yoz, - deydi,
Ijod mashqing soz, – deydi.
Shu guldastam – gulshan bog',
Sizga yoqsa, ko'nglim chog'.

ATIRGUL

Gulzorimda atirgul,
Hid taratib o'sardi.
Gullab g'unchasi butkul,
Go'yo yo'lim to'sardi.
Ko'rib onam mehnatin,
Ko'nglim tog'day o'sardi.



ASKAR O'G'LIN SOG'INIB...

Otam bir so'zli edi,
Xizmatga chog' lansam dedi:
Xatingni olsam qo'lga,
Tushaman shu on yo'lga.

Chaqirib, - der komandir,
Qism Solikamsk tomondir.
-Tez kiyin, senga ruxsat,
Taqib medaling ko'rsat.

Otang, akang kelishgan,
Fo'rmang biram yarashgan.
Uchrashib quchoqlashdik,
Boladek inoqlashdik.

O'rik, uzum opkepti,
Xaltasiga sopkepti.
Yotdik mehmonxonada,
O'n beshinchi xonada.

Aylanib Solikamskda,
Uch kun yurdik kamida.
Rasmni esdalik bilib,
Suratga tushdik kulib.

Kuzatyapman ularni,
Sizga aytay shularni.
Rus zabit yurib - qaytdi,
O'zbekcha to'rt so'z aytdi.

Qaysi deng: suv, choy, go'sht, non,
Tinglar akam Ne'matjon.
Do'ppiga kulib boqdi,
Muomalasi yoqdi.

G'ururlandi otamiz,
-Poezd keldi ketamiz.
Ko'zлari menda edi,
"Xo'p, xayr, xayr, o'g'lim", -dedi.

«Vup! Vup!» yangrar Uralga,
Qo'l siltadim ularga.

TABIAT MANZARASI

“Ko‘chat o‘tqaz, bog‘ yarat,
O‘lkam husni gul, daraxt”,
Bu hikmatni, oshnolar,
Aytgan bizga bobolar.

- Deya G‘ayrat, Umidjon,
Ter to‘kdi marjon-marjon.
Yuring, - deb Alisherga,
Ariq bo‘yi, bo‘sh yerga.

Uch pahlavon, uch botir,
Navnihol o‘tqazayotir.
Yaxshidan bog‘- bilamiz,
Gul, chamanzor qilamiz.

Ishchan bola Muzaffar,
Egat tortdi bu safar.
Shildir-shildir oqdi suv,
Nihollarga yoqdi suv.

Payvand sirin bilgum bor,
Uzum xomtok qilgum bor.
Bog‘imizga bir qarang,
Shaftolimiz tortar rang.

O'zim boqqa ixlosmand,
Mevalarim asal-qand.
Sershox yong'oq uyimda,
Hosili g'uj uyum-da.

Gilos dona – go‘yo cho‘g‘,
Ta‘rifiga qiyos yo‘q.
Bizning go‘zal bog‘larda,
Xuddi marjon shoxlarda.

Buvim bergen non behi -
Mening uchun jon behi!
Anjir qiyom qishda ham,
Xurmo ochar ishtaham.



BOG‘ISHAMOL

Paxtagulli choynagim,
Piyolaga ta’zimda.
Mehmonlarga dil so‘zim,
Mening she’rim sozimda.

Doiraday charxpalak,
Ohista aylanyapti.
O‘rindiq rangi bo‘lak,
Qizchalar joylanyapti.

Archasiga borman-da,
Go‘yo sirdosh ikki do‘st.
Yurgandayman o‘rnonda,
Doim yashnab shunday o‘s!

Bir qiz-chi, «Dilxiroj»ga,
Berilib o‘ynayapti.
Qara, desam Sirojga,
Ko‘zlari quvnayapti.


Do‘stlarim Marg‘ilondan,
Ko‘rib maqtab aytishdi.
Qolishmas, – deb vodiydan,
Farg‘onaga qaytishdi!

NURAFSHON UYLAR

Yangi "Navro'z" mahalla,
Chiroy ochar tong palla.
Yo'llar ravon, uy qator,
Elni quyosh uyg'otar.

Rango - rang gullar hidi,
Kelganlar ko'rib deydi:
Yangi uy – ikki qavat,
Soz yashashga bu da'vat.

Keng, yorug', ko'r kam, qulay,
Zamonamdan o'rgilay!
Suv, elektr, olov gazim.
Davrimga qilay ta'zim.



GAZETAM

(Xo'jaobod tumani gazetasiga)

Chindan aytsam do'stlarim,
Quvonadi ko'zlarim.
Oddiylikda so'zlarim,
Chiqqani rost « Haqiqat ».

Muxlisimiz Azimsher,
Gazetamiz o'qib der:
Lavha, etyud, hajviy she'r,
Berilgani haqiqat.

Sahifasi rang – barang,
O'zingiz o'qib qarang.
O'cherk, repo'rtaj, sanang,
Ma'naviy gap – haqiqat.

Zafarga da`vatkorsan,
Barchaga barobarsan.
Yosh yuragimda borsan,
Aytganim dil haqiqat.

ЖАҚЫЛАНДЫРЫЛУСЫНДА БАСТАУАЛАРДА

Muxbirlari bag‘rida,
Ijod gulshan bog‘ida.
Qiziqishi chog‘ida,
O‘stirgani haqiqat.

Muxlislarинг bor ko‘plib,
Ustozlarim hurmatlab.
Sakson yoshingni qutlab,
She‘r bitganim haqiqat.



OLMA KO'CHATI

(Akam G'ofirjonne eslаб...)

Akam yumdi ko'zini,
Eslab shirin so'zini.
Yorin silab yuz, qoshin,
Ayam to'kar ko'z yoshin.

Quvalik do'sti Rasul,
Motamida muttasil.
Ajralib do'ppisidan,
Tursa el so'rар bizdan.

Yangi payshanbasida,
O'n tuplar chamasida.
Olma ko'chat keltirdi,
Sadoqatin bildirdi.

- Rahmat , - deb o'rtog'iga
O'tqazdik chorborg'iga.
Yilning har to'rt fasl chog'i,
Yashnar xotira bog'i.

BOLA QALBI - BEG'UBOR

KO'CHIRDIM

- Qani, tur Hasanali
Echdingmi, masalani?
Yozganlarim o'chirdim,
Gulshanoydan ko'chirdim.

USTA

Buzilsa televizor
Baxtiyor «tuzatar zo'r ».
Payvandlaydi, qaraydi,
Bir haftaga yaraydi.

JO'MRAGI UCHDI

- Menga qara, Shahnoza,
Choynakni yuvgin, toza.
Kulni solu, tindirma,
Ehtiyot qil, sindirma.
- Sindirmadim, tushirdim,
Jo'mragini uchirdim.

ERIB KETDI

Elar izg'irin, shamol
Chana tortar sho'x Jamol.
- Tashqariga chiq, G'ani,
Tunov kungi qor qani?
Kel, bahorim, - degandek,
Eribdi oq shakardek.

SHAXMATCHI

Yon qo'shnimiz Rahmatchi,
Nomi chiqqan shaxmatchi.
O'ynab Buloqboshida,
Oq-qora-yu toshida.
Do'stim, Siz ham qarang, - der,
Zokir bo'ldi durang, - der.

СОНОНИМ СО'З ТОП-ЧИ

SINONIM SO‘Z TOP-CHI

Yuz so‘ziga bosh qotib,
Ma‘nodosh istar Latif.

- Yuz...
- Ikki yuz.

KAMARIM HAM YANGI

Shuhratdan ol, andoza,
Kiyimlari top - toza.
Tuflisi qora rangi,
- Kamarim ham bor yangi.





Umidjonim nabiram,
Bergan edim do'mbiram.
Chertib-chertib chalyapti,
Doim ko'nglim olyapti.



Shoirning nabirasi Dilnura

NABIRAM DILNURAGA

Shuhratbekning qizlari,
Go‘yo kulcha yuzlari.
Kipriklari uzun - uzun,
Chiroyiga qo‘shar husn.

Kulib turganda qara,
Jingalak soch, qosh qora.
Aytsa «chip - chip jo‘jalar»,
Dil quvonchim – o‘shalar.

Qo‘g‘irchog‘in qo‘ymaydi,
«Alla» aytib to‘ymaydi.
Muncha shirinsan, qizim,
Kulishing mening o‘zim.

MEHMONDO‘ST

Maqtar Oltinoy xola,
O'tkirjon do'ndiq bola.
Odamoxun, shirinso'z,
Hech tegmasin unga ko'z.

So'risiga joy qilib,
Bir piyola choy qilib.
Amakijon, Siz rosa
Xush ko'rasiz ko'k somsa, -

Deb to'rt dona keltirar,
Mehrini bilintirar.
Oshimiz – devzirada,
Damlagan Nazira-da.

ORZU

O'g'lim bugun izzatda,
Vatan uchun xizmatda.
Burchin ado etardi,
Xatim tezda yetardi.

Manzil joyi – Sirdaryo,
Orzulari – bir dunyo.
Maktub yozib shunday der:
- Bo'lmoqchiman, ofitser.

O‘TIRING SO‘RIMIZDA

Chanqog‘imning avjida,
- Holim so‘rab Mavjuda.
Dadajonim, Siz doim,
Yoqtirasiz ko‘k choyim.

Suhbatingiz jonidil,
Xizmatim – bajonidil.
Naqshinkor so‘rimizda,
O‘tiring to‘rimizda.

KOMPYUTERCHI QIZ

Kompyuterda Yorqinoy,
Qo‘sish qiz yozar hoynahoy.
Terib kichik, bosh harflar,
Barmoq kuchin sarflar.
Qo‘shtirnoq, vergul, nuqta,
O‘rniga qo‘yar puxta.
Ko‘k, yashil rang siyohlar,
Printerni bo‘yoqlar.
She‘rim - qog‘oz yuzida,
Sevinch balqar ko‘zida.
Ishga havas shundaydir,
Yangilikka undaydir.

ҲОДЖАНОВИЧ СЕРГІЛІКТЕРІНДЕ АСТАНАДА БАЙЫРДА

ODOBLI BO‘LING

Yon qo‘sнимиз Ismoil,
Konfet yeyishга moyil.
Bo‘zдан keldи ammasи,
Yig‘ilishdi hammasи.

Keng dasturxon yozildи.
Qo‘li qandga cho‘zildи,
- Deb bolaginam payqar,
Rahmon tog‘a bosh chayqar.

Odob farzанд naqshидир,
Bilgan buni yaxshидир.
Xulosa qil, Ismoil,
Senga qolmadik qoyil.

BUG‘DOY

Oltin boshoq bo‘laman,
Sariq donga to‘laman.
Yetishtirgan dehqonga,
Boshim egib qolaman.

KETMON

Kuzda shudgorlab yerni,
Ketmonda to‘ntaraman.
Rizq bergani chun uni
Elkamda ko‘taraman.

XOTIMA

Mundarija – bir tartib,
To‘g‘rimi, do‘stim, Latif?
Yozayin, - deb yaxshi she‘r,
To‘kdim ancha halol ter.

She'rga sariavha qo'ydim,
Men takror o'qib to'ydim.
Siz ham o'qing, avaylang,
Mazmunin dilga joylang.

MUNDARIJA

Bolalar ijodkori.....	3
Xushmanzara diyor.....	5
Andijonning bog'ida.....	6
Zilol buloq	7
Kosonsoy	8
Yomg'irdan so'ng	9
Oq kabutar-osmonimda	10
Gulshan bog'	11
Atirgul	11
Askar o'g'lin sog'inib.....	12
Tabiat manzarasi.....	14
Bog'ishamol	16
Nurafshon uylar.....	17
Gazetam.....	18
Olma ko'chati.....	19

BOLA QALBI - BEG'UBOR

Ko'chirdim.....	21
Usta.....	21
Jo'mragi uchdi.....	21
Erib ketdi.....	22
Shaxmatchi.....	22
Sinonim so'z top-chi?.....	23
Kamarim ham yangi.....	23
Umidjonim nabiram.....	24
Nabiram Dilnuraga.....	26
Mehmono'st.....	26
Orzu.....	27
O'tiring so'rimizda.....	27
Kompyuterchi qiz.....	28
Odobli bo'ling.....	29
Bug'doy.....	29
Ketmon.....	30
Xotima.....	30

1200 eyy

Adabiy – badiiy nashr.

Odiljon QODIROV

“Beg‘ubor tuyg‘ular”

She‘rlar

Muharrir

Tex. muharrir

Musahhih

Sahifalovchi

Nusrat Abdusalom.

Tolibjon Qo‘ziboyev.

Nigora Tojimatova,

Nilufar Yuldasheva

Zuxriddin Umurzoqov.

Noshirlik litsenziyasi AI №175. 11.06.2010 yil.

Bosmaxonaga 2013-yil, 10-iyunda berildi. Bosishga 2013-yil 25-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84. 1/32. Hajmi 1,0 bosma taboq. Nashriyot tabog‘i 0,9. Times New Roman garniturasи, ofset qog‘ози, ofset usulida chop etildi. Buyurtma №1793. Adadi 300 nusxa.

“Andijon nashriyot-matbaa” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.